“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat
institutining Farg‘ona mintaqaviy filiali
direktori: _____ D.A.Ximmatov
«24» 10 _____ 2022 yil

“Raqslar guldastasi” nomli I-Xalqaro milliy raqs ijrochiligi ko‘rik-tanlovini o‘tkazish to‘g‘risida

NIZOM

15-dekabr 2022-yil

1. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus doirasida O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining Farg‘ona mintaqaviy filiali tomonidan 2022-yil 15-dekabr kuni “Raqslar guldastasi” nomli I-Milliy raqs ijrochiligi ko‘rik-tanlovi (bundan keyin Ko‘rik-tanlov) tashkil etish va o‘tkazish tartib qoidalarini belgilaydi.

2. Ko‘rik-tanlov 2022-yildan boshlab har yilda bir marta may oyida O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining Farg‘ona mintaqaviy filialida masofaviy ko‘rinishda o‘tkaziladi.

3. O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining Farg‘ona mintaqaviy filiali tanlovni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha mas’ul hisoblanadi.

4. Ko‘rik-tanlovning tashkilotchilari:

- O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi;
- O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining Farg‘ona mintaqaviy filiali.

2. Ko‘rik-tanlovning maqsadi

1. Ko‘rik tanlovning maqsadi quyidagilardan iborat:

- milliy raqs ijrochiligini yosh avlodga keng targ‘ib qilish;
- ta’lim muassasalarida milliy raqs ijrochiligini o‘rgatish sifatini oshirish, o‘qitishning yangi usullarini targ‘ib etish, yosh iqtidorlarni kashf etish;
- milliy raqs ijrochilik san’atini yanada yuksaltirish, mohir ijrochilarni kashf etish;
- milliy raqs ijrochilar mahorati, iste’dodi va qobiliyatini namoyon etish, ularning ijrochilik ko‘nikmalarini yanada rivojlantirish;
- milliy raqs ijrochiligini yuksak darajaga ko‘tarish, milliy san’atimizni dunyo sahnalariga olib chiqish, iqtidorli yoshlarni rag‘batlantirish hamda ularning ijodini keng targ‘ib qilish;

- milliy raqs ijro imkoniyatlarini oshirish va ularning o‘ziga xos xususiyatlari bilan ommani tanishtirish.

3. Ko‘rik-tanlovda ishtirok etish shartlari

1. Ko‘rik-tanlov 2022-yil 15-dekabr kuni ishtirokchilarning videoyozuvlari asosida o‘tkaziladi.

2. Ko‘rik-tanlov bir bosqichda o‘tkaziladi.

3. Ko‘rik-tanlovda musiqa va san’at maktab o‘quvchilari, ixtisoslashtirilgan san’at maktab o‘quvchilari, oliy ta’lim muassasalari talabalari ishtirok etishlari mumkin.

4. Ko‘rik-tanlovga topshirilayotgan xar bir ish uchun 100 ming so‘m miqdorda tashkiliy to‘lov olinadi. To‘lov Ilova 2 ga muvofiq pul ko‘chirish yo‘li orqali amalga oshiriladi.

5. Tanlovda ishtirok etishni istagan ijrochilar tashkiliy qo‘mitaga quyidagi ma’lumotlarni taqdim etishlari lozim:

- to‘ldirilgan ariza (Ilova 1);
- yakka ishtirokchining rasmi yoki jamoaviy rasm;
- videoyozuv;
- to‘lov kvitansiyasi (Ilova 2).

6. Belgilangan muddatdan kech taqdim etiladigan hujjatlar qabul qilinmaydi.

4. Tanlovni o‘tkazish shartlari

1. Ijrochilar quyidagi yosh kategoriyalari bo‘yicha ishtirok etishlari mumkin:

- *Birinchi yosh kategoriya* - musiqa va san’at maktablari o‘quvchilari;
- *Ikkinchi yosh kategoriyasi* - ixtisoslashtirilgan san’at maktablari o‘quvchilari;
- *Uchinchi yosh kategoriyasi* - oliy ta’lim muassasalari talabalari.

2. Dastur talablari

Yakka ijrochilik:

- Milliy raqs yakka ijro etiladi;
- Raqs kompozitsiyasi davomiyligi 10 daqiqadan oshmasligi kerak.

Jamoaviy ijrochilik:

- Millliy raqs jamoaviy ijro etiladi;
- Raqs kompozitsiyasi davomiyligi 10 daqiqadan oshmasligi kerak.

3. Barcha ma’lumotlar 2022-yil 9-dekabr kuniga qadar raqslarguldastasi2022@gmail.com elektron pochtasiga yuborilishi kerak. Qo‘shimcha ma’lumotlar quyidagi telefon raqamlari orqali olish mumkin: +998735435011, +998735434630, +998903445018

5. Tanlov ishtirokchilarini baholash va g‘oliblarni taqdirlash

1. Ko‘rik-tanlovda eng ko‘p umumiy ball to‘plagan ishtirokchilar orasidan hakamlar hay’ati qaroriga asosan har bir yo‘nalish bo‘yicha tanlovning 1, 2, 3-o‘rin sovrindorlari aniqlanadi.

2. Hakamlar hay’ati tomonidan ishtirokchilarga qo‘yilgan ballar teng bo‘lib qolganda, hakamlar hay’ati raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

3. Ishtirokchilarni baholashda hakamlar hay’ati mustaqildir.

4. Ko‘rik-tanlovning yakuniy natijalari hakamlar hay’atining qarori bilan rasmiylashtiriladi.

5. Ko‘rik-tanlov hay’at a’zolarining qarorlari yakuniy bo‘lib qayta ko‘rib chiqilmaydi.

6. Ko‘rik-tanlov natijalariga ko‘ra g‘oliblar I, II va III darajali diplom bilan taqdirlanadi. G‘oliblarning rahbarlari tashakkurnoma bilan taqdirlanadi. O’rin olmagan ko‘rik-tanlov ishtirokchilariga “Raqslar guldastasi” nomli I-Milliy raqs ijrochiligi ko‘rik-tanlovi ishtirokchisi diplomi beriladi. Diplom va tashakkurnomalar elektron ko‘rinishda taqdim etiladi.

7. Ko‘rik-tanlov natijalari O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining Farg‘ona mintaqaviy filiali http://dsmi-qf.uz/ veb saytida 2022-yil dekabr oyi yakunida e’lon qilinadi.

6. Yakunlovchi qoida

1. Ko‘rik-tanlovni o‘tkazish jarayonlari bo‘yicha kelib chiqadigan nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

Ilova 1

“Raqslar guldastasi” nomli I-Milliy raqs ijrochiligi ko‘rik-tanlovida ishtirok etish uchun

ARIZA

F.I.O. (to‘liq): _____

Tug‘ilgan sanasi: _____

Ta’lim muassasasining nomi va telefon raqami: _____

_____

Kursi (sinfi): _____

Ishtirokchining telefon raqami: _____

Rahbarining F.I.O.: _____

Dastur nomi: _____

Ishtirok etayotgan yosh kategoriyasi: _____

Ilova 2

O’zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining Farg’ona mintaqaviy filiali
Moliya Vazirligi G’aznachiligi
X/R 2340 2000 3001 0000 1010
MFO 00014 INN 201122919
MBBB HKKM Toshkent sh. INN 207261053
H/R 4001 1086 0304 0570 9410 0056 002

To‘lov summasi: 100 000 so‘m

To‘lov maqsadi: “Raqslar guldastasi” ko‘rik-tanlovi uchun to‘lov badali